



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 4 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 4

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 4



ТОШКЕНТ-2025

**Бош мухаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош мухаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори,  
профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобожонова Дилором Бобожонова**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари  
университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Аширов Адхам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзР ФА Тарих институти

**Агзамова Гулчеҳра Азизовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзР ФА Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори,  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика  
университети

**Аминова Азиза Марковна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Навоий давлат педагогика институти

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори,  
Тошкент ирригация ва кишлок  
хужалигини механизациялаш  
муҳандислари институти  
Миллий тадқиқот университети

**Худайқулов Тулқин Дўстбоевич**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Шаҳрисабз дала педагогика институти

**Гофоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори, профессор  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори, профессор,  
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт  
институти

**Халикова Раҳбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боходир Жўраевич**  
тарих фанлари доктори, профессор  
Қариш давлат университети

**Маҳкамova Надира Раҳмановна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Тошкент ахборот технологиялари  
университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори,  
Телави давлат университети

**Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафасва Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ерметов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Андижон давлат университети

**Расулов Абдуллажон Нуридинович**  
тарих фанлари доктори, профессор  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор  
Санкт-Петербург Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Қозогистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори, профессор,  
Қозогистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Тожибоев Музаффар Турдибоевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ИИВ Академияси

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори,  
Озарбайжон давлат университети

**Саипова Камола Давляталиевна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмаилова Алмаз**  
тарих фанлари доктори,  
Догистон мустақил университети

**Иноятова Диларам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор  
Ўзбекистон Миллий университети

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайдон давлат  
иқтисодиёт университети

**Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Гулистон  
давлат педагогика институти

**Нуруллаева Шоира Кушназаровна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Урганч давлат университети

**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон  
жаҳон тиллари университети  
**Масъул котиб**

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Джоробекова Айнур Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозогистон дипломатия академияси

**Рахмонқулова Зумрад Бойхураевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исаков Бахадир Нигматуллаевич**  
тарих фанлари номзоди,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Холмуродов Дилшод Рашидович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Жиззах давлат  
педагогика университети

**Одилов Аброр Анварович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети  
**Масъул котиб**

**Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Алимардонов Отабек Қудратович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Ўзбекистон Миллий университети

## МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

<b>1. Boxodirov Ixtiyor</b> TURKISTON HARBIY OKRUGINING ILI O‘LKASIDA ROSSIYA IMPERIYASI HUKMRONLIGINI O‘RNATISHGA QARATILGAN FAOLIYATI.....	5
<b>2. Bo‘tayev Jonibek</b> XX ASR BOSHLARIDA SAMARQAND VILOYATIDA TIBBIY XIZMAT HOLATI.....	10
<b>3. Djumamurotov G‘ulom</b> XVIII ASRNING IKKINCHI YARMI VA XIX ASR BOSHLARIDA QORAQALPOQLARNING OROL BO‘YIGA KO‘CHIB JOYLASHISHI.....	16
<b>4. Ergasheva Xusnida</b> NEFT SANOATINING MODDIY-TEXNIK BAZASI VA INFRASTRUKTURASINI RIVOJLANTIRISH.....	27
<b>5. Кобзева О.П.</b> СКАНДИНАВСКИЕ ИССЛЕДОВАТЕЛИ ШЕЛКОВОГО ПУТИ.....	34
<b>6. Rahmatov Muhridin</b> TATAR ZIYOLILARINING TURKISTON TA‘LIM TIZIMINI YO‘LGA QO‘YILISHIDAGI ISHTIROKI VA UNING NATIJALARI.....	40
<b>7. Ruzikulova Maftunaxon</b> MARKAZIY FARG‘ONA SUV XO‘JALIGINING MOLIYAVIY TA‘MINOTI VA UNDAGI MUAMMOLAR (1950-1991-yillar).....	46
<b>8. Саттаров Акрам</b> XIX АСР ЎРТАЛАРИДА ТУРКИСТОНДАГИ ДЕМОГРАФИК ВАЗИЯТ.....	52
<b>9. Tishabayev Alisher</b> O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MALAKALI SPORTCHI MUTAXASSIS KADRLAR TAYYORLASH TIZIMIDAGI O‘ZGARISHLAR (1991-2019-yillar).....	58
<b>10. Toliboyeva N.O.</b> O‘ZBEKISTONDA MADANIY-MA‘RIFIY SOHANING YUKSALISHI.....	66
<b>11. Хайдаров Муродилла</b> ФРЕДЕРИК СТАРР. МАРКАЗИЙ ОСИЁНИ ҚАЙТА КАШФ ЭТИБ.....	71
<b>12. Baxtiyor Yuldashev, Xusnida Ergasheva</b> SOVET DAVLATI HUKMRONLIGI YILLARIDA O‘LKADA NEFT SANOATINI RIVOJLANTIRISHGA DOIR CHORA-TADBIRLAR.....	81




УДК:622.276(09)(575.121)

**Baxtiyor Yuldashev,**  
Toshkent davlat transport universiteti  
Xalqaro ommaviy huquq kafedrasida dotsenti  
E-mail: baxtiyor.yoldoshev@inbox.ru  
**Xusnida Ergasheva**  
Toshkent davlat transport universiteti  
Xalqaro ommaviy huquq kafedrasida dotsenti v.b.  
E-mail: ergasheva.xusnida@bk.ru

### SOVET DAVLATI HUKMRONLIGI YILLARIDA O'LKADA NEFT SANOATINI RIVOJLANTIRISHGA DOIR CHORA-TADBIRLAR

**For citation:** Baxtiyor Yuldashev, Xusnida Ergasheva. EVENTS TO DEVELOP THE OIL INDUSTRY IN THE COUNTRY DURING THE YEARS OF SOVIET POWER. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 4, pp.81-87

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15380686>

#### ANNOTATSIYA

Maqolada sovet davlat hukmronligi yillarida neft sanoatini rivojlantirishga doir amalga oshirilgan chora-tadbirlar tarixini o'rganish orqali O'zbekiston neft sanoatini mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga hamda butun sanoatning yuksalishiga turtki bo'lganligi va ahamiyati ko'rsatilgan. Rossiyada amalga oshirilgan davlat to'ntarilishidan so'ng sovet hokimiyatida o'rnatilgan tartiblar asosida amalga oshirilgan neft quduqlaridan neftni qazib olinishi, uni qayta ishlash jarayonlarini xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari bilan bog'liq holda o'rganilgan. Maqola O'zbekiston Milliy Davlat arxivi fondlaridagi arxiv xujjatlari, xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari, monografiya, risolalar asosida Farg'ona vodiysidagi neft sanoati tarixiga bag'ishlanib, mavzuga doir xulosalarni o'z ichiga oladi.

**Kalit so'zlar:** tog'-kon sanoatini rivojlantirish uchun tashkil qilingan trestlar, neftni qayta ishlash, neft qazib olish sur'atlari dinamikasi, sanoatning barcha sohalarini yuksaltirish, besh yillik rejalar, mashinasozlik va transport sohalarining rivojlanishi, xalq xo'jaligi, neft sanoati sohasidagi kadrlar.

---

**Бахтиёр Юлдашев,**  
Ташкентский государственный транспортный университет  
Доцент кафедры международного публичного права  
E-mail: bakhtiyor.yoldoshev@inbox.ru  
**Хуснида Эргашева,**  
Ташкентский государственный транспортный университет  
и.о. доцент кафедры международного публичного права  
E-mail: ergasheva.xusnida@bk.ru

## МЕРОПРИЯТИЯ ПО РАЗВИТИЮ НЕФТЯНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В СТРАНЕ В ГОДЫ СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ

### АННОТАЦИЯ

В статье показан импульс и значение нефтяной промышленности Узбекистана в развитии экономики страны и подъеме всей отрасли путем изучения истории мер, принятых для развития нефтяной промышленности в годы советской власти. Добыча нефти из нефтяных скважин, осуществлявшаяся на основе процедур, установленных при советской власти после государственного переворота в России, изучала процессы ее переработки в связи со всеми отраслями народного хозяйства. Статья посвящена истории нефтяной промышленности Ферганской долины на основе архивных документов, научных исследований зарубежных и отечественных исследователей, монографий, брошюр, хранящихся в фондах Национального государственного архива Узбекистана, и содержит выводы по теме.

**Ключевые слова:** тресты, организованные для развития горнодобывающей промышленности, нефтепереработки, динамика темпов добычи нефти, стимулирование всех отраслей промышленности, пятилетние планы, развитие машиностроения и транспортной отрасли, кадры в области народного хозяйства, нефтяная промышленность.

**Bakhtiyor Yuldashev,**

Tashkent State Transport University  
Associate Professor of the Department  
of International Public Law  
E-mail: bakhtiyor.yoldoshev@inbox.ru

**Khusnida Ergasheva,**

Tashkent State Transport University  
Acting Associate Professor of the Department  
of International Public Law  
E-mail: ergasheva.xusnida@bk.ru

## EVENTS TO DEVELOP THE OIL INDUSTRY IN THE COUNTRY DURING THE YEARS OF SOVIET POWER

### ABSTRACT

The article shows the impetus and importance of the Uzbek oil industry in the development of the country's economy and the rise of the entire industry by examining the history of measures taken to develop the oil industry during the Soviet era. Oil extraction from oil wells, carried out on the basis of procedures established under Soviet rule after the coup d'etat in Russia, studied the processes of its processing in connection with all branches of the national economy. The article is devoted to the history of the oil industry of the Ferghana Valley based on archival documents, scientific research by foreign and domestic researchers, monographs, pamphlets stored in the collections of the National State Archive of Uzbekistan, and contains conclusions on the topic.

**Index Terms:** trusts organized for the development of the mining industry, oil refining, dynamics of oil production rates, stimulation of all industries, five-year plans, development of engineering and transport industry, personnel in the field of national economy, oil industry.

### 1. Dolzarbligi:

Bugungi kunda dunyo energetika kon'yunkturasida neft va tabiiy gaz energiyaning asosiy manbalari hisoblanadi va bu ikki resurs jahonning ko'pchilik mamlakatlari uchun yoqilg'i-energetika balansining asosiy komponenti bo'lib qolmoqda. Neft eksport qiluvchi davlatlar tajribasidan shuni ko'rish mumkinki, eksportdan olinayotgan daromad mamlakat neft sanoatini rivojlantirish bilan bir qatorda, mamlakatda yuqori rivojlangan, sanoatlashgan jamiyat yaratish imkonini beradi. Neft sanoatining rivojlanishi mamlakatlar milliy iqtisodiyotini samarali rivojlantirib, agrar tizimning industrial tizimga almashinishiga olib keladi. Neftni eksport qiluvchi

davlatlar tashkiloti – OPEC prognozlarini bo‘yicha, 2015-2020 yillarda jahon bo‘yicha neft qazib olish hajmi oshib boradi, bundan olinayotgan daromadlar uglevodorod yoqilg‘isini olishning alternativ texnologiyalarini rivojlantirishga yo‘naltiriladi. Jahon bozorida neftga bo‘lgan talabning ortishi natijasida neft sanoatiga e‘tibor kuchaydi. Natijada neftni qazib olish, qayta ishlash yangi texnologiyalardan keng foydalanish yo‘lga qo‘yildi.

Maqolada sovet davlati hukmronligining dastlabki yillarida o‘lkada neft sanoatini rivojlantirishga doir chora-tadbirlar alohida masala qilib o‘rganilgan hamda mazkur masala yuzasidan bir qator tarixchi olimlar va soha mutaxassislarining bildirgan fikrlari, tadqiqotlari natijasida yaratilgan risola, monografiyalari orqali mavzuni yoritishni maqsad qilib olingan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Sovet davlati hukmronligining dastlabki yillarida Farg‘ona vodiysida neft sanoati tarixini o‘rganishda sovet davrida va mustaqillik yillarida nashr qilingan mavzuga oid ilmiy risola va monografiyalar hamda ilmiy maqolalarda keltirilgan ma‘lumotlardan foydalanildi. Shu jumladan sovet davrida nashr qilingan С.К.Зиядуллаев “Промышленность Узбекистана и основные экономические проблемы ее развития”, Ш.Н.Ульмасбаев “Промышленное развитие советского Узбекистана”, nomli monografiyalari va В.З.Дробижев, Л.Б.Медведев “Из истории совнархозов”, Г.Ю.Колева “Нефть вместо угля: влияние Венгерских событий 1956 год на изменения в энергетической политике СССР” nomli ilmiy maqolalar va mustaqillik yillarida nashr qilingan А.К.Рахимов “O‘zbekiston neft-gaz konchilari qissasi” nomli risolasida, O‘zbekiston milliy arxivi fondlarida keltirilgan ma‘lumotlardan foydalanildi.

## **2. Metodlar:**

Ushbu maqolada sovet davlati hukmronligining dastlabki yillarida Farg‘ona vodiysidagi neft sanoati tarixini o‘rganishda qiyosiy, tahliliy usullardan foydalanib, mavzuni bir nechta omillar asosida yoritib berildi. Mazkur masalani o‘rganishda mavzuga oid bo‘lgan risola, monografiya, ilmiy tadqiqot ishlaridan foydalanilgan holda xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

## **3. Tadqiqot natijalari:**

Rossiyadagi 1917-yil davlat to‘ntarishi Turkiston o‘lkasidagi sanoat sohasining jumladan neft sanoatining faoliyatida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Avvaldan neft konlari va neftning qayta ishlash zavodlarini boshqarib kelgan xususiy mulk egalari qo‘lidan barcha mulklar davlat ixtiyoriga o‘tkazila boshladi.

Rossiyada davlat to‘ntarishidan keyin birinchi bo‘lib Xalq Komissarlari Soveti qoshida Xalq Xo‘jaligi Oliy Kengashi (BCHX) tashkil etildi. “1918-yilda - ikki tomonlama bo‘ysunadigan RSFSR Oliy Iqtisodiy Kengashi - Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi va RSFSR Xalq Komissarlari Sovetlari tashkil qilindi. 1917-yil 23-dekabrda viloyat, tuman va tumanlarda ham Xalq xo‘jaligi kengashlari tuzila boshlandi. Turkistonda ham Xalq xo‘jaligi kengashlari tuzildi. Xo‘jalik kengashlari faoliyati, hududiy va tarmoq tuzilmalarini uyg‘unlashtirilishi asosida mamlakat sanoatini boshqarish tizimi yaratildi. Jumladan, 1918-yilda Xalq xo‘jaligi Oliy Kengashining sanoatning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirish rejaları ishlab chiqildi. Shuningdek, “xo‘jalik kengashlari tomonidan korxonalarini milliy lashtirish jarayonida ularni saqlab qolish va kengaytirish maqsadida korxonalar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarga aniqlik kiritishga, ayrim hollarda turdosh korxonalarini birlashtirishga erishildi. Asbob-uskunalarini ta‘mirlash, ish qismlari, asboblar va boshqalarni ishlab chiqarish bo‘yicha tarmoqlararo korxonalarini yaratilib, sanoat ishiga rejalashtirishni joriy etildi. Mahalliy xo‘jalik kengashlarining bevosita ishtirokida hududlarni elektrlashtirish rejaları ishlab chiqilib, yer osti boyliklarini keng qamrovli qidirish ishlari, korxonalarini yoqilg‘i, xom ashyo, pul mablag‘lari bilan ta‘minlash, mahsulot sotishni tashkil etish ishlari boshlandi” [1]. 1917-yildan 1932-yilga qadar Xalq xo‘jalik kengashlari faoliyatida sanoatini yig‘ish va bo‘ysundirish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirildi.

1917-yillardan sanoatni tiklash va yakka rahbarlikni o‘rnatish maqsadida strategik jihatdan muhim hisoblangan energetika sohasini shakllantirish davrida Turkiston yer osti boyliklarining o‘rni katta bo‘ldi. O‘lkada yoqilg‘i bilan ta‘minlanishidagi jarayonlarni 2 davrga bo‘lib o‘rganish mumkin. Birinchi davr 1918-yildan 1920-yil may oyigacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida Turkiston o‘lkasining asosiy yoqilg‘i manbalaridan ajratilganligi, ya‘ni respublika iqtisodiy hayotining,

xususan, transportning deyarli to'liq turg'unligi bilan tavsiflanadi. O'lka tashqi dunyodan yakkalanib qolishi o'zining yoqilg'i resurslari bilan kifoyalandi. Bu vaqtda yoqilg'i yo'qligi sababli o'lka sanoatida, parovozlarga paxta yog'i va quritilgan baliq keki ishlatildi. Mahalliy yoqilg'i ishlab chiqarishni talab darajasiga ko'tarishga qaratilgan barcha sa'y-harakatlar texnik imkoniyatlarning yetarli emasligi va Turkiston o'lkasining umumiy siyosiy va iqtisodiy sharoiti tufayli besamar ketdi.

Shunday bo'lsada, 1918-yil 5-martda XXXning "Turkiston o'lkasidagi tog'-kon sanoatini milliyalashtirish to'g'risida"gi dekreti qabul qilindi. Dekretga ko'ra "Turkiston o'lkasida joylashgan barcha neft, ko'mir va boshqa suyuq mineral yoqilg'i sanoati korxonalari xususiy mulk egalari hamda muassasalar qo'lidan olinib, Rossiya Federativ respublikasi ishchi-dehqonlar hukumatining milliy mulki deb e'lon qilindi. Bu tarmoqlar doirasidagi korxonalarni boshqarish keng avtonomiya tamoyillariga asoslandi va shu sohada ishlaydigan barcha ishchilarning ish faoliyati vakolatli vakillar tomonidan o'rnatildi. Korxonalar va ularda joylashgan boyliklarni saqlab qolish uchun barcha zavod qo'mitalari, rahbarlar, shuningdek, yuqori bo'limlar, alohida xodimlar, ishchilar ish faoliyatiga joylarda 1918-yil mart oyida quyidagi bandlar bilan o'zgartirishlar kiritildi:

sohadagi kompaniyalarning asosiy va hududiy filiallari joylashgan hududlari hamda mahsulot saqlaydigan omborlari joylashgan joylarini aniqlash;

korxonalarda joylashgan mol-mulklarning inventarizatsiyasini amalga oshirish: a) ko'chmas mulk-yer, uylar, mulklar, fabrikalar, qurilishi tugallanmagan binolar, ularning joylashgan joyini ko'rsatgan holda; b) jonli jonsiz inventarlar, ular uchun foydalanilgan mashinalar, ehtiyot qismlari va aksessuarlari, asbob-uskunalar, avtomobil jihozlari; s) tovarlar va mahsulotlar, ular qanday bo'lishidan va qanday turdagi bo'lishidan qat'iy nazar barcha materiallar, samarali qurilish texnikalari; e) foizlar va dividendlar qimmatli qog'ozlar, transport hujjatlarining moliyaviy mablag'lari, sug'urta polislarining qarz majburiyatlari; d) ro'yxatlar: qarzdorlar va kreditorlar barcha turdagi tovarlar, mahsulotlar, materiallarning pul so'mmalari; g) ishchilar va hunarmandlarning shtatdagi xodimlari, ularning lavozimi, ushbu korxonada ishlagan vaqti va ish haqlari ko'rsatilgan hujjatlarni aniqlab olindi"[2]. So'ngra qabul qilingan dekret asosida yuqoridagi barcha tog'-kon sanoatiga tegishli bo'lgan mulklar milliyalashtirildi.

Ushbu dekret asosida Turkiston o'lkasidagi neft konlari va neftni qayta ishlash korxonalari to'g'risida ma'lumotlar yig'ish hamda dekretga ko'rsatilgan bandlarni bajarish uchun bir nechta shaxslarga guvohnoma berilib, ish faoliyatini boshlashiga ko'rsatmalar berildi. Jumladan, 1918-yil 6-mart kuni 1918-yil 5-martdagi dekreti asosida "xalq mulkiga aylangan Markaziy Osiyo temir yo'lining Melnikova stantsiyasi yaqinidagi Oq-Kulmyakdagi neft konlarini vakolatli vakili etib, Turkiston viloyat xalq komissarlari, A.S.Kravchenko va uning o'rtoqlari hay'atning maxsus buyrug'i bilan E.Timofevich, L.M.Fedorovich, Vetchinkin va P.P.Ivashkinlarga komissarlar kengashi tomonidan ishlab chiqarish bo'linmalari boshlig'i sifatida ishlashga ruxsat berildi hamda xalq kengashining barcha qoidalari va buyruqlarini bajarishi belgilandi"[3]. Ushbu buyruq asosida yuqorida nomlari keltirilgan shaxslar o'z vakolatlaridan foydalanib, dekretga belgilangan vazifalarni amalga oshirdi. Bu esa neft sanoati sohasida o'zgarishlarni yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Yuqoridagi dekret asosida 1918-yil 16-mart kuni Turkiston xalq Komissarlar Sovetining "Tog'-kon sanoatini milliyalashtirish to'g'risi"dagi dekreti e'lon qilindi. Ushbu dekret bilan 11 ta konchilik korxonasi, jumladan, 6 ta ko'mir, 2 ta neft va 3 ta kon milliyalashtirildi. Bular: "Qizil-qiya" va "Sulukta" aktsiyadorlik jamiyatining ko'mir konlari, "Chimyon" va "SANTO" neft konlari ularning eng yiriklari hisoblanardi.

Ushbu davrda "sanoatning milliyalashtirilishi chet el kapitali nazoratida bo'lgan "Farg'ona oil" va "Nobel" kabi aktsiyadorlik jamiyatlarining iqtisodiy ta'sirini susaytirdi. Milliyalashtirilgan korxonalarni boshqarish barcha ishchilar, hunarmandlar va xizmatchilarning vakillari ishtirokida avtonomiya asosida amalga oshirildi, milliyalashtirilgan korxonalarining barcha qadriyatlarini himoya qilish zavod va nazorat qo'mitalari, oqsoqollar hamda kengashlarga topshirildi. Barcha qimmatbaho buyumlar korxonalarda qoldi va ularni viloyat Xalq Komissarlari Soveti yoki mahalliy ishchilar hamda soldatlar deputatlari kengashining mahsus ruhsatisiz hech qanday sharoitda sotish, o'tkazish yoki boshqa joyga olib o'tish mumkin emas deb belgilab qo'yildi. Naqd puldan

foydalanish ustidan nazorat oʻrnatildi, korxonalarining mol-mulkini isrof qilish, ularni yashirish, ular bilan turli davlat operatsiyalarini oʻtkazish mulkni talon-taroj qilish deb hisoblanib, inqilobiy sudning toʻliq javobgarligiga olib kelishi taʼkidlandi”[4. C. 33-34.]. Ushbu dekret asosida Turkiston oʻlkasidagi barcha yoqilgʻi sanoati milliyashtirildi. Natijada neft sanoatida oʻzgarishlar yuzaga kelib, neft qazib olish va qayta ishlash jarayonlariga oʻz taʼsirini koʻrsatdi. Bu esa Turkiston oʻlkasida neft qazib olish hajmining keskin ravishda pastlab borishiga sabab boʻldi.

Chunki togʻ-kon sanoatining milliyashtirilishi “avvaldan korxonani boshqarib kelgan korxonaga egalarning va Rossiya imperiyasida boʻlib oʻtgan inqilob natijasida tuzilgan sovet hokimiyatidan norozi boʻlgan kuchlarning, zavod, korxonalar davlat ixtiyoriga oʻtib ketishini istamaganligi tufayli yuzaga keldi”[4. C-33.]. Shuning uchun korxonalarining milliyashtirilishi davrida sanoatning barcha sohalarida jumladan, neft sanoatida birinchi jahon urushi yillariga nisbatan ham ishlab chiqarish jarayonlari pastlab bordi. Bundan tashqari, neft sanoatining ishlab chiqarish surʼatlarini pastlab borishiga “Turkiston oʻlkasining dunyodan uzilib qolishi, yaʼni chetdan mahsulotlarni kirib kelmaganligi, texnik taʼminotning yoʻqligi, mashina ehtiyot qismlarining yetishmasligi, neftni qazib olinishidagi parmalash uskunalarining hamda neftni qayta ishlash jarayonidagi texnikalarning eskirganligi, yangi texnikalarning yetishmasligi sabab boʻldi”[5]. Hatto, 1919-yilda neft qazib olish oldingi yillarga nisbatan ham kam boʻlgan. Bunga bir nechta omillar sabab boʻlgan. Birinchidan, “Turkiston oʻlkasida amalga oshirilgan istiqloqlilik harakati, oʻlkadagi notinchlik, toʻxtovsiz olib borilgan toʻqnashuvlar, neft sanoati sohada avvaldan ishlab kelgan ishchilarning bu sohada faoliyat olib borishiga istiqloqlilik harakatining aʼzolari qarshilik koʻrsatganligi bu jarayonga oʻz taʼsirini koʻrsatdi. Chunki istiqloqlilik harakatining aʼzolari korxonalarining milliyashtirilishi natijasida davlat ixtiyoriga oʻtgan korxonalarda mahalliy aholining ishlashidan norozi boʻlib, ularning ish faoliyatiga toʻsqinlik qilgan. Natijada neft qazib olish hajmi pastlab bordi”[6]. Ikkinchidan, hukumat tomonidan togʻ-kon sanoati sohasidagi ishchilarning maʼlum bir qismini toifadan chiqarish va malakasizlantirish jarayoni amalga oshirildi, yaʼni bu sohada faoliyat olib borgan ishchilarning ayniqsa, mahalliy millat vakillarining malakasiz kadrlar sifatida qaralishi ishlab chiqarish surʼatlarini pastlab borishiga turtki boʻldi. Bu esa 1917-1920-yillarda Turkiston oʻlkasida neft sanoatining pastlashiga sabab boʻldi.

Ikkinchi davr 1920-yil may oyidan 1924-yilgacha, yaʼni milliy hududiy chegaralanish oʻtkazilishigacha boʻlgan vaqt oraligʻida Turkiston oʻlkasiga chetdan neft mahsulotlarini olib kirilishi jarayonlari bilan izohlanadi. Bu davrda Ozarbayjonda sovet hokimiyatining tiklanishi va Bokudan neft mahsulotlarining Turkiston oʻlkasiga olib kelinishi bilan yoqilgʻi inqirozini bosqichma-bosqich bartaraf etildi hamda respublikaning transport va iqtisodiy hayotini qisman jonlantirdi. Bunga misol qilib, 1921-yilda neft mahsulotlari importi 1920-yilga nisbatan ortib borganligini olish mumkin. “1920-yilda oʻrtacha oylik import 10 150 000,8 - 1 269 000 pudni, 1921-yilda esa bu koʻrsatkich 13 951 000,12-1 413 000 pudni tashkil qildi. Krasnovodskga suyuq neft mahsulotlari (mazut, motor moyi va kerosin) yetkazib berishning koʻpayishi asosan temir yoʻllarning yuk koʻtarish qobiliyatiga bogʻliq holda amalga oshirilgan”[7]. Amalga oshirilgan tadbirlar natijasida “1924-yilda Oʻzbekiston SSR miqyosida qazib olingan neft 1913-yildagi 13,2 ming pud oʻrniga 5,6 ming pudni”[4. C. 77.] tashkil qildi.

Turkiston oʻlkasida 1921-yilning birinchi oylariga kelib moliyaviy inqiroz, Fargʻonadagi toʻxtovsiz olib borilgan milliy istiqloqlilik harakati, transportning uzilishi, asosiy ishlab chiqarish materiallari va zarur jihozlarni markazdan olishning imkoni yoʻqligi darhol rejali vazifalarni amalga oshirishning imkoni yoʻqligini koʻrsatdi. Natijada ishlab chiqarish dasturlari qayta koʻrib chiqildi va sezilarli darajada qisqartirildi. “1921-yilda X-Butun Turkiston Sovetlar sezdi va undan keyin boʻlib oʻtgan 3-Turkiston xoʻjalik kengashlari sezding direktivasiga muvofiq Markaziy xoʻjalik kengashi yangi iqtisodiy siyosat tamoyillarini amalga oshirishga kirishdi. Bunda birinchi galda korxonalarini tijorat maqsadlarida foydalanishga topshirish masalalari koʻrildi. Korxonalarini tijorat maqsadida foydalanishga oʻtkazishda quyidagilar hisobga olindi:

faqat yaxshi jihozlangan yoki alohida davlat ahamiyatiga ega boʻlgan korxonalar tijorat hisobi, oʻz-oʻziga xizmat koʻrsatish va oʻzini oʻzi boshqarish tamoyiliga oʻtkazilgan holda davlat qoʻlida qolishi;

bu korxonalar davlat ta'minotining barcha turlaridan chiqarilishi kerakligi belgilab berildi.

Bundan ko'zlangan maqsad korxonalarining o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish va o'zini o'zi boshqarish tizimi orqali sanoatni rivojlantirishga erishish, bu ularning samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishdan iborat edi.

Yuqoridagi holatlar hisobga olingan holda Turkiston o'lkasida jami 120 ta korxonalar tijorat maqsadlarida foydalanishga topshirildi. Bular orasida neft – 13 korxonalar, qurilish sanoati – 11 korxonalar etib belgilandi"[7. C.168.]. Jumladan, "Turkiston XKSning 1921-yil 27-oktabrdagi "Turkiston o'lkasida barcha turdagi yoqilg'i, neft mahsulotlari va o'rmon materiallarini tijorat maqsadlariga o'tkazilishi hamda haq to'lanishi to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Qarorda quyidagilar belgilandi:

1) Barcha turdagi yoqilg'i, neft mahsulotlari va o'rmon materiallari iste'molchilarga belgilangan narx evaziga sotiladi;

2) To'liq yoki qisman tijoratga o'tgan barcha davlat muassasalari va korxonalar o'zlari ishlab chiqargan mahsulotlarni bozorda sotish yoki o'z xo'jaligidan foyda olishni boshlaydilar, shuningdek, barcha turdagi xususiy korxonalar naqd pul evaziga yoqilg'i, neft mahsulotlari hamda o'rmon materiallarini sotib oladi. Qolgan boshqa barcha iste'molchilar 1922-yil 1-yanvargacha yoqilg'ini bepul olishlari belgilandi.

3) Markaziy soliq xizmati organining maxsus ruxsatnomasi bilan birja tovarlarini avvalgi va yangi berilgan buyurtmalar bo'yicha neft mahsulotlarini amalda ishlab chiqarish va sotish huquqiga ega bo'ladi.

4) Neft sanoatiga tegishli 2 ta korxonaga ko'rsatilgan tartibda Xalq xo'jaligi va iqtisodiyot markazining umumiy yo'riqnomalariga muvofiq, har birini alohida holatda yoqilg'i boshqarmasi ruxsati bilan va keyinchalik bu haqida Milliy iqtisodiyot markazi e'tiboriga havola qilingan holda kredit berishga ruxsat etiladi. Xususiy korxonalarini qarorda ko'rsatilgan tartibda yoqilg'i, neft mahsulotlari va o'rmon materiallari bilan ta'minlash hamda ushbu korxonalariga umumiy taqsimot rejasini buzmaganda yoqilg'i etkazib berishga ruxsat etiladi.

5) O'lkada tog'-kon sanoati boshqarmasi tomonidan tasdiqlangan qoidalarga asosan yoqilg'i sanoatida import qilinadigan va mahalliy konlardan qazib olinadigan suyuq yoqilg'ilar uchun to'lov miqdori belgilanadi. Qattiq yog'och va mineral yoqilg'i hamda o'rmon materiallari uchun to'lov miqdori esa xalq komissarlari soveti qoshidagi Narxlar qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

6) yoqilg'i uchun to'lovlar buyurtmani olgandan keyin iste'molchilar tomonidan to'lanadi va jismoniy shaxslar hamda muassasalar naqd pulda, hatto iste'molchilar ham banknot yoki chekda to'laydilar"[8] degan qoidalar kiritilgan. Ushbu qoidalarga asoslanib barcha korxonalar tijorat maqsadida foydalanishga o'tadi va ish faoliyatini olib boradi.

Tijorat hisobiga o'tkazilgan korxonalar yuqorida keltirilgan qaror asosida ish faoliyatini yo'lga qo'ydi. Korxonalarini tijorat hisobiga o'tkazilishi, o'z-o'zini boshqarishi orqali ishlab chiqarish sur'atlarini oldingi yillarga nisbatan olib qaralganda bir oz bo'lsada ortishiga, o'lkaning yoqilg'iga bo'lgan ehtiyojini bir qismini qondirishga sabab bo'ldi.

**Xulosa** qilib aytadigan bo'lsak, Rossiyadagi davlat to'ntarishi Turkiston neft sanoatida tub o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Davlat to'ntarishidan so'ng darhol neft konlari va neftni qayta ishlash zavodlarining barcha mulki milliy lashtirildi, boshqaruv tuzilmasi va resurslar taqsimoti tubdan o'zgartirildi. Natijada neft sanoatida ishlab chiqarish sur'atlari pastlab bordi. Bunga yuqorida keltirib o'tilgan omillar sabab bo'ldi. 1921-yilning oxiri va 1922-yilning boshlariga kelib neft sanoatini qayta tiklash va rivojlantirish uchun "Ugleneft" tresti tashkil qilindi. Ushbu trestning olib borgan faoliyati natijasida neft sanoati qayta tiklanib, ishlab chiqarish sur'atlari ortib bordi. Ayniqsa, bu jarayon ikkinchi jahon urushi va urushdan keyingi davrda sezilarli darajada o'sdi. Bunga Sovet hukumati tomonidan ishlab chiqarishni rag'batlantirish va sanoat korxonalarini rivojlantirish bo'yicha ko'rilgan choralar sabab bo'ldi. Masalan, yangi texnologiyalar joriy etilib, modernizatsiyaga sarmoya kiritildi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, bu davrda qabul qilingan qarorlarda ko'pincha O'zbekiston SSR kabi hududlarning o'ziga xos ehtiyojlari emas, balki faqat markaziy hokimiyat manfaatlarini va butun sovet iqtisodiyotining ehtiyojlari hisobga olindi. Bu esa sanoatning notekis rivojlanishiga olib keldi. Shunday qilib, ishlab chiqarishning o'sishiga qaramay,

milliylashtirish va markazlashtirilgan boshqaruv oqibatlari viloyatning iqtisodiy va ijtimoiy hayotida sezilarli iz qoldirdi.

#### Iqtiboslar/Сноски/References:

---

1. Дробижев В.З., Медведев Л.Б. Из истории совнархозов – Москва: Московский государственный университет, 1964. – 188 с.
2. О‘zМА, R-735-fond, 1-ro‘ухат, 588-yig‘majild, 63-varaq.
3. О‘zМА, R-735-fond, 1-ro‘ухат, 588-yig‘majild, 26-26-varaq orqasi.
4. Ульмасбаев Ш. Н. Промышленное развитие советского Узбекистана. – Ташкент: Узбекистан, 1958. – С. 33-34, 77.
5. О‘zМА, R-101-fond, 1-ro‘ухат, 17-yig‘majild, 70-varaq orqasi.
6. Отчет о деятельности Совета Народных Комиссаров и Экономического Совета Туркестанской Республики. На первое октября 1922 г. – Ташкент.1922. – С. 147-303.
7. Отчет о деятельности Туркестанского Экономического Совета за февраль-октябрь м-цы 1921 года. – Ташкент. 1922. – С. 168, 174.
8. О‘zМА, R-25-fond, 1-ro‘ухат, 429-yig‘majild, 290-varaq.

# ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 4 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 4

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 4

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000